

BOBUR ELMUROD

***KO‘ZLARIMDAGI
DUNYO***

She‘rlar



*TOSHKENT
«ADIB» NASHRIYOTI
2012*

УДК: 821.512.133-1

ББК: 84 (5Ў)7

E47

Masul muharrir:

Iqbol Mirzo

*Ushbu kitob O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
Yoshlar bilan ishlash bo‘limi tomonidan nashrga
tavsiya etilib, “Ijod” fondi tomonidan
moliyalashtirilgan.*

*Kitob respublika ta‘lim muassasalari kutubxonalariga
bepul tarqatilindi.*

Elmurodov, Bobur.

E47 Ko‘zlarimdagi dunyo: she’rlar / B. Elmurod.

– T.: «ADIB» nashriyoti, 2012. – 64 b.

ISBN 978-9943-317-80-2

УДК: 821.512.133-1

ББК: 84 (5Ў)7

ISBN:978-9943-317-80-2

©«ADIB» nashriyoti,2012

© B. Elmurod, 2012

EZGU AN'ANA

Muhtaram Yurtboshimizning «Adabiyotga e'tibor — ma'naviyatga, kelajakka e'tibor» nomli risolasida «iste'dodlarni izlab topish va ularning iqtidorini ro'yobga chiqarishda chuqur o'ylangan usullar, ya'ni aniq mexanizm zarurligini bugun adabiyotimiz manfaatlari talab etmoqda», degan fikr asosiy maqsad-muddaolardan biri sifatida alohida ta'kidlangani bejiz emas.

Prezidentimiz "Adabiyot masalasi - ma'naviyat masalasidir" deb ijodkorlar oldida turgan ulkan va mas'uliyatli vazifaga urg'u berarkan, millat kelajagi uchun qalam ahli ham javobgar ekanligiga e'tibor qaratadi:

"...agar biz O'zbekistonimizni dunyoga tarannum etmoqchi, uning qadimiy tarixi va yorug' kelajagini ulug'lamoqchi, uni avlodlar xotirasida boqiy saqlamoqchi bo'lsak, avvalambor buyuk yozuvchilarni, buyuk shoirlarni, buyuk ijodkorlarni tarbiyalashimiz kerak".

Ana shu yuksak e'tibor samarasi o'laroq, bugungi kunda yosh iqtidor egalariga yaratilgan shart-sharoit va imkoniyatlar har qanday ijodkorning havasini keltirishi tabiiy. Jumladan, «Do'rmon» ijod uyida ustoz-shogirdlik an'analarini davom ettirishga zamin yaratuvchi ijodiy uchrashuvlar, o'quv seminarlarini aytish mumkin. Ayniqsa, ezgu an'anaga aylanib ulgurgan «Birinchi kitobim» loyihasi doirasida chop etilayotgan mo'jaz asarlar adabiy hayotimizda ulkan hodisa sifatida e'tirof etilmoqda.

Qo'lingizdagi kitob ham minglab ijodkor yoshlarning ichidan saralab olingan, mashaqqatli va serzavq mehnatning hosilasi, umidli yosh ijodkorning dastlabki qadamidir.

SHOIR DEGAN DARAXT

*Daraxt ekding – yolg'izlik
Tegib ketdi joningga.
Afsus, u qurib ketdi,
Qololmadi yoningda.*

*It asrading, hartugul,
Sendan nari ketmadi.
Yoningda qolar edi,
Ammo umri yetmadi.*

*Ko'p o'ylading hovlingda
Yurguvchilar haqida.
Yolg'izligingni baham
Ko'rguvchilar haqida.*

*Vaqt o'tib men keldim-u,
Sen yana yo'l qarading.
Axir Xudodan o'zing
Bitta daraxt so'rading.*

*Keyin dod solding achchiq,
Yurakni bosadigan.
Deding: bu qanday daraxt
Toshkentda o'sadigan.*

FOTOAPPARAT VA MEN

*Sen boqqan chog'
nega odamlar,
Xushsuratdir...
kulgidan to'ygan.
Men termulsam
sarg'aygan o'tlar
Va daraxtlar
gullamay qo'ygan.
Sen ko'z solsang
onam ko'p dilbar,
Otam bardam,
qad kerib turar.
Men boqqan chog' –
onam mushti par,
Otam esa hassada yurar.
Nigohingda do'stim ulug'vor,
Bekam-u ko'st turar muloyim.
Men qarasam
u bechorahol,
Oqsoqlanib yuradi doim.
Vaqt yalmog'iz –
uchar xotirjam,*

*Ko'rganlarim o'xshamas chinga.
Baxtli bo'lib
ko'rinay men ham,
Bir zumgina ko'z tashla menga.*



OLAPAR

*Tunda jala urdi ovulimizni,
Ezg'in shovulladi og'ilning to'ri.
Shu kecha...
shu kecha bor qo'yimizni
Bo'g'izlab ketibdi, la'nati bo'ri.*

*Endi nima bo'lar, aqlim yetmaydi,
Otam holsizgina hassada yurdi.
So'ngra qari do'stim – Olaparimni,
Mening ko'z o'ngimda ayamay urdi.*

*Bechora,
kimdan ham so'rardi yordam,
Chidadi, aybdor sezdi o'zini.
Balki tushgandirman uning yodiga,
Faqat men tomonga tikdi ko'zini.*

*Mo'ltirab qarayman keng dalalarga,
Namxush bedalarning bo'yi muattar.
Barini unutdim, lekin... esimda
Bedazor oralab ketgan Olapar.*

*Eslayman, Botir-u Yoriltoshlarni,
Ular o'sha paytlar murodga yetgan.
Mening bolaligim bedazorlarda
Do'sti Olaparni qidirib ketgan.*



SOAT MILLARIGA

*Bir qoziqqa qoqilgan uch mil,
Uchta taqdir o'ynaydi poyga.
Biz ulardan birimiz, bilsang,
Faqat qozig'imiz har joyda.*

*Tez yurardi ulardan biri,
Ortda qolar edi o'rtancha.
Ammo oxirgisi negadir
Turar edi qotib qolgancha.*

*Men u haqda o'yladim ko'p bor,
Taqdirlarni kuzatdim uzoq.
Yer yuzida qancha odam bor,
Shu milchaga soladi quloq.*

*Qolganlari shunchaki kezar,
Biri yolg'on, biri chin bilan.
Doim vazmin bo'lsang zamon ham
Hisoblashar ekan sen bilan.*

JALOLIDDIN MANGUBERDI **MONOLOGI**

*Qay makonda tugar jang,
Qayda yurak urishi...
Bilsang har bir daqiqa
Chingizxonning yurishi.*

*U keladi bostirib,
Chopasan, minib otga.
Ko'rmagansan tarixning
Ro'y berishin hayotda.*

*Keksayib bir manzilda,
Horiydi oting butkul.
Va tushunib yetasan
Tugab qolganini yo'l.*

*Keyin bir farqi qolar
Afsonadan dunyoning.
Hech qachon tubi bo'lmas
Sen sakragan daryoning.*

YUBORILMAGAN SURATLAR

*Kuzgi barglar to'kilar mahal,
Xat olaman sendan odatda.
Unda suratimni so'raysan,
Meni kulib turgan holatda.*

*Garchi sabab kerak shodlikka,
Yig'lamoqqa yetsa-da imkon.
Yuragi bor, shoir odamga
Kulish juda og'ir, onajon.*

*Siz bilmaysiz, sabr kosamning
Sabri qanchagacha yetishin.
Siz bilmaysiz, mening qismatim
Goh Orolga o'xshab ketishin.*

*Men hayotdan biroz orqada
Qolib ketdim,
xayol dastidan.
Kulish odat ekan aslida,
Kulmayotgan odam ustidan.*

*Bas, sanamang ko'z yoshlarimni,
Umr qisqa,
G'amlar hisobsiz.
Bu dunyoda inson rolini
O'ynab bo'lmas ekan niqobsiz.*

*Men bilmadim shoirlik bilan,
Balki shodon yashasa bo'lar.
Ona, o'g'lingizdan sanoqsiz
G'amgin odam yasasa bo'lar.*

*Qismat ekan, men qay davrada,
Siz haq degan karvonda qoling.
Men doimo Siz tarafdaman,
Siz haqiqat tomonda qoling.*

*Kuzgi barglar to'kilar mahal,
Xat olaman Sizdan odatda.
Unda suratimni so'raysiz,
Meni kulib turgan holatda.*

YOSH JANGCHINING SURATI

*Bobojon, o'lim nima?
Ko'zni mangu yumishmi?
Tiriklik degani – bu:
Nafas olib turishmi?*

*Bobomdan chiqmadi so'z,
O'jar tilim so'radi.
Devorda kulib turar
Yosh jangchining surati.*

*O'zi kim uzoq yashar,
Ayting, oxirgi marta...
– Qo'y bolam, uning yoshi
Bizlardan ancha katta.*

*Nega bobom gapirmas,
Balki yetmas jur'ati...
Devorda kulib turar
Yosh jangchining surati.*

YALTIROQ TUGMA

*Borlig'ingni yutdim amallab,
Sehrgarga aylandim zumda.
Fasllarni qo'yibman qamab,
To'rt fasl ham mening izmimda.*

*Bir kechada o'g'irlab oldim,
O'tganingda gap otgan soyni.
Qaytishimda so'mkamga soldim,
Yulduzlarga ko'milgan oyni.*

*Yana nima chiqdi esimdan,
Tag'in boshga solmasin g'avg'o.
Faqat qolib ketardi mendan,
Qorong'uga belangan havo.*

*Va nihoyat keldim yoningga,
Buyur,
yerga cho'kkaladim tiz.
– Bori shumi, pichirlab asta
Fasllarga yonboshladi qiz.*

Oh...
Orzularing qo'yibman to'sib,
Yo'qotibman,
bu qanday nag'ma.
Kamzulimdan qolibdi tushib,
Ishq atalmish yaltiroq tugma.



BEDANAGA TANBEH...

*Sen yerga qo'nsam deysan,
Men tushmasam osmondan.
Ikkimiz ham beamal
Chiqamiz quyushqondan.*

*Bu yo'l juda xatarli,
Borolmaymiz uzoqqa.
Mening "qanot"im sinar,
Sen tushasan tuzoqqa.*

*Tinch yashashning sharti bor,
O'zgasiga ko'nmagin.
Men samoga uchmayman,
Sen zaminga qo'nmagin!*



QAYTISH

*Qayerlardan kelayapti u,
Rangi o'chgan va nimjongina.
Xullas, bitta qora taqdirni
Olib keldi oppoq mashina.*

*Unutmabdi keng dalalarni,
Unutganin eslay olmadi.
Mashinani to'xtatdi, ammo
Ko'z yoshini to'xtatolmadi.*

*So'ngra bordi eski uyiga,
Nam tuproqqa belanib yotdi.
Qish.
Yoshligi tushib esiga,
Ukalari unga qor otdi.*

*Yodga tushdi, darcha yonida
Keksa ona, o'ltirar xomush.
Kecha unga aytibdi kimdir,
Endi o'g'li qaytib kelmasmish.*

*So'ng ne bo'ldi, tushunolmadim,
Uyning tomirlari uvishdi.
Tong.
Ko'chada turar mashina
Bitta yaproq uzilib tushdi.*

QIZIL CHIROQ

Qizil chiroq — yo'l yo'q. To'xtagin!

Qizil chiroq — eshiklar yopiq.

(Usmon Azim)

Qizil chiroq...

hamma to'xtadi,

Mashinalar, keyin o'zim ham.

Shamol ko'rmaganga o'xshadi,

Uchib ketdi shlyapam bilan.

Kimdir gugurt yoqar hoynahoy,

Sigarasin tutatmoq uchun.

Qizil chiroq...

hamma to'xtagan

O'tib ketdi bir parcha tutun.

Uyga qaytdim o'sha kun tunda,

Kresloda o'y surdim uzoq.

Soat taqqa to'xtadi shunda,

Balki yonib qolgandir chiroq.

Qizil yonar,

tomirlar... yurak,

Qizil yonar jigarim ko'proq.

Axir qanday yashayapman men,

Hamma yog'im qip-qizil chiroq.

PUSHKIN XOTIRASIGA...

*Bulutlar – ko‘k sag‘anasida,
Qonamoqda shafaqlar – qirmiz.
To‘lqin yuvgan qumning ustida
Yotibdi bir qiz...*

*Daydi sho‘xliklarini qo‘msab,
Yellar qizni quchar atayin.
Tutam sochlarini o‘g‘irlab
Yuzlariga sochadi mayin.*

*Qoraymoqda kunning nigohi,
Hovuridan tushmagan dengiz.
Uyg‘onishni istamas chog‘i
Uxlayotgan qiz...*

*Sohillarning nafasi uzra,
Miltiraydi yulduzlar – oppoq.
Ko‘rinarkan ajib manzara,
Shu‘lalarga to‘lganda qirg‘oq.*

*Tentirayman atrofga ba‘zan,
Dengiz, sohil – tuyular tengsiz.
Ammo go‘zal edi baridan
Uxlayotgan qiz...*

SINGLIM

*Bevaqt hayotimga kirib kelgan mart,
Singan umidlarim supurar bir-bir.
Eski qumg'onimda qaynayotgan dard
Tomchisi yuzingga tegdimi, singil.*

*Xavotir ko'zimga cho'kar chuqurroq,
Arosat akamdir,
xiyonat – inim.
Nega u damlarning hammasi oppoq,
Uzoq qishlog'imda qolgan yaqinim.*

*Fevral yuragimning sog'inchin tuygan,
Bahorga yuzini ko'rsatmas ko'nglim.
Anov quroq ko'rpang tagiga qo'ygan
Barcha dardlaringni menga ber, singlim.*

*Diydor sahrolari buncha bepoyon,
Mudroq tuyg'ularim uxlolmaydi tinch.
Bahorning qaytishi bir menga ayon,
Asli ikki dilga in qurar sog'inch.*

MAHKUMNING SO'NGGI NUTQIDAN...

*Bugun so'nggi kunim...
sezdim baribir,
Mulzam ko'rinmoqda menga devorlar.
Sovuq derazamda qotib qolgan nur,
Tinmay chag'iraydi bezovta sorlar.*

*Nega yer chizasan,
mahkum odamzot,
Bugun so'nggi kunim...
sezdim baribir,
Og'ir kishanlardan qilindim ozod,
Uzoq quchoqladi keksa bir asir.*

*Ochiq maydondaman...
olomon ichra,
Og'ir chayqaladi yog'ochdagi dor.
Asl titroqlarni tuydim o'shanda,
O'shanda o'zimni sezdim gunohkor.*

*Nega o'ylanasan...
berahm jallod,
So'nggi nafasimni sezdim baribir.
Otamning bag'rini eslatib bot-bot
Uzoq quchoqladi,
keksa bir asir...*



YAXSHI ODAM

*Eson momo – oppoq farishta,
Lek hayoti odamdek o'tdi.
O'zi ekan tolning tagida
O'n ikki yil o'g'lini kutdi.*

*Eson momo – oppoq farishta,
Osmondamas, yerda yuradi.
O'g'li qaytar bugun yo erta
Unga kelin olib beradi.*

*Soddamasmi – o'tgan-qaytganni,
Mehmon qildi,
ko'ngli to'lmadi...
To'y ko'rgisi kelib hovlida
"Omonyor" ga rosa o'ynadi.*

*Chorig'iday burishgan yuzi,
Keksa ko'zi yaxshi ko'rmaydi.
Ko'chadagi yosh bolaga ham:
– Turg'unjonim, senmisan – deydi.*

*Eson momo – oppoq farishta,
Birni uzsa, o'nni ekadi.
Nahot o'g'li bilmas qachondir
Farishtalar uchib ketadi.*

*Pochtachimiz –
ko'ngli bo'sh odam,
O'zi yaxshi... "hayfsan" olgan.
Qanday qilib kelsin qishloqqa,
Xatlari ham yig'ilib qolgan.*



SEHRGAR DAFTARIDAN...

*Baliq bo'ldi dengizda,
Tinch yashash edi o'yi.
Ammo qora akula
Quvdi uni kun bo'yi.*

*Toshbaqa bo'ldi keyin,
Endi erkin ko'rar tush.
Ammo tog'da kosasin
Sindirib ketdi bir qush.*

*Bas, ajdarga aylanib
Olov purkadi oxir.
To'satdan paydo bo'ldi
Oq otli Kenjabotir.*

*Hozirda u qari ot,
Boqarkan tog'lar tomon.
Negadir shod ko'rindi
Adirda yurgan quyon.*

YOZILMAGAN TARIXDAN...

*"Boshi yelkasidan past,
Ko'nglida yo'qdir kiri.
Xaloskor bitta qulning
Uzilsaydi zanjiri..."*

*Ko'p o'yladi fir'avn,
Qullar nafratin sezdi.
Qamchi olib qo'liga
Qamoqxonani kezdi.*

*Ko'zlarda qotgan xo'rlik,
Qora cho'g' – mildiraydi.
Titroqlarni fosh etib
Zanjirlar shildiraydi.*

*Havoda achchiq qamchi,
Bir bahona kutardi.
Burchakdagi keksa qul
Betob edi... yo'taldi.*

*Jazo hammaga ma'lum,
"Tiz cho'k, roostingni gapir,
Aytsang, ozod qilaman,
Qo'shiqdagi qanday sir?"*

*Dor ostidan sodiq qul,
Dast ko'tardi qo'lini.
Hammaning ko'z o'ngida
Sug'urdi o'z tilini.*

*Fir'avn butkul hayron,
Endi nima qiladi.
Qul bechora savodsiz,
Na yozishni biladi.*

*Qaranglar, u baxtiyor
Hayotga qaytayapti.
Dunyodagi eng go'zal
Qo'shiqni aytayapti:*

*"Boshi yelkasidan past,
Ko'nglida yo'qdir kiri.
Xaloskor bitta qulning
Uzilsaydi zanjiri..."*

NIQOBLI...

*Bunda bir qiz yashar...
sodda, o'ynoqi,
Meni tanir edi,
ko'nglim to'q edi.
Unga deb qulupnay tergan kezzlarim
Qishloqda niqobli kishi yo'q edi.*

*U keldi.
Yuzini ko'rsatgani yo'q,
Niqobdan qarardi
hatto bizga ham.
Ilk bor kelganida pista bergandi,
Qulupnay ko'targan o'sha qizga ham.*

*Tunda ikkovini ko'rdim adirda,
Ko'zlarim ko'rmasa...
ko'nglim to'q edi.
Niqobli kishini tanidim, o'sha,
Qizning yuzlarida niqob yo'q edi.*

* * *

*Agar meni yo‘qlasa do‘stim,
Yo‘qligimni qilingiz oshkor.
Garchi unga suyanib o‘sdim,
Garchi go‘zal xotiralar bor.*

*Eshigimni ohista qoqib,
Meni so‘rab kelganda qayg‘u.
Unga mening yo‘qligim ayting,
She‘rlarimning do‘sti edi u.*

*Chalingudek bo‘lsa qo‘ng‘iroq,
Ohanglarga burkansa xonam.
Yo‘q deb ayting rostini unga,
Meni izlab kelgan zot – onam.*

*Boshqa hech kim qilmas bezovta,
Yo‘q, siz undan bo‘lmang umidvor.
Axir uning erta maktabga
Chiqadigan bolalari bor.*

BOBOM VA "FOLBIN"

(hazil)

*Tariq sepgan edim, bedana
Tongga qadar ko'nglim xushladi.
Uyg'oq yotar edim so'rida,
Chap qo'limni kimdir ushladi.*

*Dedi: "Kafting bunchalar dag'al,
Chiziqlari chuqur... betartib.
Bedanaday siylasang agar
Taqdiringni beraman aytib".*

*Yo'q demadim,
chap qo'lim guvoh,
(Shu qo'lni deb ortdi qiziqish).
Yasharkanman hali ko'p uzoq,
Kampir meni chindan sevarmish.*

*So'ylayverdi,
chaqa bergandim,
"Bedanaday ko'p tariq yedi".
Xoh ishoning, urush ko'rganman,
O'sha qo'lim... yog'ochdan edi.*

RIVOYAT

*Bir kishi nola qildi:
"Xudo, men bilan gaplash?"
O'shanda qor yog'ardi
Yomg'ir bilan aralash.*

*"Qanisan, ovoz bergin,
Bormi senga borar yo'l".
Shu kezda butazorda
Xonish qilardi bulbul.*

*"Seni ko'ray, izn ber",
Yalindi, ko'zida yosh.
Shunda bulut oralab
Ko'kda balqidi quyosh.*

*"Bor bo'lsang, yaqinroq kel,
Seni ko'rmog'im kerak".
Shu on u bilan tinmay
O'ynashardi kapalak.*

"TANGA"

Oyni-da tanga qildik,
Shart bog'lagan zamoni.
Menga qorong'u taraf,
Senga yorug' tomoni.

Shunday bo'lishaverdik,
Hazil qilibmi boshda.
Ko'nghimiz bir edi-yu,
Ko'rgiligimiz boshqa.

Bahorni kutib uzoq,
Yetib qolibmiz kuzga.
Uchib ketardik, ammo
Qanot yetmadi bizga.

Oxir Yer tanga bo'ldi,
Bo'ying yetgan zamoni.
Senga qay taraf tushdi,
Menga sen yo'q tomoni.

BEMOR DO'STIMDAN XAT...

*"O'ylab ko'ring",
dedi va asta,
Ko'zoynakni taqdi shifokor.
Ko'zim yoshga to'ldi bir pasda,
Endi menga achinmoq darkor.*

*Shunday tugar ertak yakuni,
Qoldim rangsiz dunyo ortidan.
Kuzataman endi har kuni
Odamlarni oynak ostidan.*

*Atrofimda turfa niqoblar,
Kezib yurar,
kun g'ira-shira.
Axir bunday emas odamlar,
Chunki mening ko'zlarim xira.*

*To'lib ketar,
ko'lanka, shubha,
Aldarnigoh - ko'zlarning qiri.
Axir mening olamim boshqa,
Bular – ko'zoynakning ta'siri.*

*Erta-indin – operatsiyam,
Umid bordir,
buni bilaman.
Ammo oynakdagi hayotim
O'zgarmasa nima qilaman?..*



QO‘LLAR...

*Bu qo‘llar qo‘l emas,
yo‘q – qullar,
Xojasin izmida –
ketmas sotilib.
Tunlar kravatda uxlamay ular,
Tongni qarshilaydi osilib.*

*Ba‘zan iskanjaga olar g‘azabdan,
Finjon to‘la mayning qanchalarini.
Qo‘yib yuborganin eslar to‘satdan
Bir qizning uzuksiz
panjalarini.*

*Keyin qayta-qayta
unga sim qoqar,
Uzun chaqiriqlar
tutar to‘shakni.
Eridan yashirib oppoq barmoqlar
Bag‘riga bosadi go‘shakni...*

*So‘nggida bu qo‘llar
yashamay qo‘yar,
Cho‘kirtak novdaning holiga tushib.
Ularni ko‘mishar fir‘avnlarday,
Xojasining yoniga qo‘shib.*

KICKINA TABIB

*Uyum-uyum kitoblar to'zg'in,
Xona horg'in xayol suradi.
Bola kitob o'qir tonggacha,
Katta bo'lsa do'xtir bo'ladi.*

*Tashqarida yomg'ir yog'yapti,
Tovush berar chelaklar to'lib.
U bexabar eshik ortida,
Kalishi ham ketgandir ivib.*

*Tun yarmida ochilar eshik,
Ona kirar uyqusiz shu tob.
— Qo'zichog'im uxlab qolgandir,
Bola esa o'qirdi kitob.*

*Tong oynaga suyanar mudrab,
Ko'zga uyqu ilinar beg'am.
Orom olar "kichkina do'xtir",
"Orom olar" kitoblari ham.*

*Istamaydi so'ng ostonadan,
Tashqariga hatlab o'tishni.
Istamaydi bir juft kalishlar
Kech yomg'irda qolib ketishni.*

*U o'ynamas do'stlari bilan,
Oq xalatdan ko'ngli to'ladi.
Betob yotgan dadasi haqqi
Katta bo'lsa do'xtir bo'ladi.*



O'SHA NIGOH

*Kemalardek uchrashgan edik,
Ayrilurmiz kemalar misol.*

(Erkin Vohidov)

*O'sha nigoh, yulduz esimda,
Tovlanardi chiroqlar oydek.
Huwillagan bandargoh uzra
Kemalardek uchrashgan edik.*

*Marmar kabi yaltirar qirg'oq,
Bo'g'iladi to'lqin — vahima.
Yelkanlari nuqradek oppoq
Yaqinlashar sohilga ke ma.*

*Uni ko'rgan edim o'shanda,
Kapitanning qizi edi u.
Ko'zlaridek qop-qora tunda,
Kelgan edim unga ro'baro'.*

*Vujudimda sarg'aydi bir his,
Yuragimda zo'r sarosima.
Bir xabarni eshitdim, afsus,
Qaytar emish ertaga ke ma.*

*Kechir!
Sezayapman senda ham hadik,
Sohildaman, sen dengizda qol.
Ke malardek uchrashgan edik,
Ayrilaylik ke malar misol.*



ULG'AYISH

*Hali go'dak turmushi,
Hislardan toshmagan qon.
Akasining kalishi,
Akasi kiygan chopon.*

*Bolakay yerlik e mas,
Tushib qolgan samodan.
Uni ermaklaydi qiz,
O'pich yo'llab havodan.*

*Bolaning vujudini,
Tuyg'ulari parchalar.
Uzun yenglar ostida
Qaltiraydi panjalar.*

*Qiz ketadi qaygadir,
Ulovin o't oldirib.
Bola ketar ko'chada,
Bolaligin qoldirib.*

KONDUKTOR QIZGA

*Qayda ko'rdim seni shu tobda,
Hammasi ertakka o'xshardi.
Axir malikalar kitobda
Faqirlardan xoli yashardi.*

*Sen-ku bunga qilib e'tiroz,
Men tomonga kelarding yana.
Olomon ham ertaklarga xos,
Chiroyingga to'lar ko'rmana.*

*Ko'zlarimga yaqinlashganча,
Meni hayron bo'lib kuzatding.
Xayolimda menga bir parcha
"Tashrif qog'oz"ingni uzatding.*

*So'ng eshiklar asta yopildi
Ertaklarga qaytdi farishta.
Malikaning siri ochildi:
Qo'llarimda turar yo'lchi pta.*

FIL FALSAFASI

*Qari filning tanasida,
Yashar edi ko'plab jon.
Qora qarg'a, ola qarg'a
Hamda kulrang ko'rsichqon.*

*Ko'rmagandim — vazminlikka,
Bir kun o'lim yo'lashini.
Ko'rmagandim — ulkanlikning
Balandlikdan qulashini.*

*Qarg'a qanot qoqdi, ketdi,
Sichqon topdi boshqa in.
Harqalay, bu sinov edi,
Yarmi yolg'on, yarmi chin.*

*Og'ir edi bunday o'ylar,
Og'irlashib ketdi bosh.
Filning o'ychan ko'zlariga
To'lib ketdi ulkan yosh.*

*Yo'l ko'rsatib turguvchi kuch
Hayvonda ham yurak ekan.
O'zing bilan qolish uchun
Ba'zan o'lish kerak ekan.*

EVRILISH

*Qurbaqaning bolalari mitti
baliqchalarga o'xshaydi. Ammo
bora-bora ular qurbaqalarga aylanib
ketishadi...*

*Qurbaqaning bolasini
Ko'rdim loyqa ariqda.
Yarmi o'ziga o'xshar,
Yarmi o'xshar baliqqa.*

*So'radim qay birisan?
U juda xomush edi.
Qay biri bo'lishimni
Maslahat bergin dedi.*

*Men chunonan lol bo'lib,
Qolgandim shu tariqa.
Istagandim men uning
Aylanishin baliqqa.*

*Baliq bo'lsam dedi u,
Meni tutib xafahol.
Bir dunyo pul so'raydi,
Pushkin yozgan o'sha chol.*

*Balki olov taftida,
Ozod umrim yanchilar.
Chinni tovoq ustida
Menga botar sanchqilar.*

*Ne qilamiz, taqdir shu,
Menga biroz dalda ber.
Ko'lmaklarim torayib
Kengayib bormoqda Yer.*

*Men jim qoldim bir lahza,
Fursatlar qiyin o'tdi.
Loyqa suvda bitta jon
Mening javobim kutdi.*

*So'ngra u bir qarorga
Kelmoqlikka shaylanib.
Sho'ng'ib ketdi tobora
Qurbaqaga aylanib.*

HELLADOS

*Yuragim shu yerni ozod deb bilgan,
Suxumi – bilagim kuchida...
Vatan – ko‘kragimga chizilgan,
Vatan – "Hellados" ning ichida.*

*Uning hayoti shu –
metindek kuchi,
Tomirda guzin nafasi tirik.
Zo‘ravonlik uning odatiy ishi,
Yanguli – Suxumilik grek.*

*Terisi suyakka yopishgan chunon,
Uning ko‘kragida jamiki bari.
Savodsiz,
la‘natga ko‘milgan yunon,
Uni atashardi chapdast, bezori.*

*Yangulini ko‘rdim o‘sha kezlarda,
Chayir badanidan cho‘chiganim rost.
Uning ko‘kragida lotin harflarda,
Bir yozuv turardi: "Hellados".*

*Sovuq temiryo'ldan biroz narida,
Skripka tovushi mayin jaranglar.
O'nlab bolalarning keng qurshovida
Ko'p bor o'tkazildi alamli janglar.*

*Venetsian ko'chasi...
O bu koinot,
Ne-ne balolarni yog'di ustimga.
Bilmam, qo'llarimga talpingan hayot,
Yanguli aylandi mening do'stinga.*

*Undan o'rganganim juda oz hunar,
O'zligimni oz-moz anglash singari.
Lekin titratadi har safar, har gal,
Uning Vatan haqda aytgan so'zlari:*

*Yuragim shu yerni ozod deb bilgan,
Suxumi – bilagim kuchida...
Vatan – ko'kragimga chizilgan,
Vatan – "Hellados" ning ichida.*

MANZARA

*Atrofdan yolg'izman...
borar joyim yo'q,
Qarshimda shovillab turibdi o'rmon.
Miltig'imda qolgan faqat bitta o'q,
Qaniydi zulmatdan chiqolsam omon.*

*Kirib borarkanman o'rmon komiga,
Atrof jumboq edi...
daraxtlar jumboq.
Go'yo ketmoqdaman ajal yoniga,
Oyog'im ostida jonlanar titroq.*

*Bo'g'zimda o'ynaydi toliqqan jonim,
Tepamda sanoqsiz qushlar galasi.
Qaqshagan maysalar chaqar tovonim,
Shovullab turardi vahm darasi.*

*Shunda oyog'imni quchdi bir nima,
Dovdirab yiqildim,
miltig'im qo'lda.
Aqldan ozganday
so'ng ko'zim ochsam,
Yastanib yotibman so'qmoq bir yo'lda.*

*Shukrona ayladim, yig'ib kuchimni,
So'ng qayrildim sekin ortimga tomon.
O'rmonga sozladim miltiq milini,
Nishonga aylandi qorong'u o'rmon.*

*O'q uzdim...
Quyundek sochildi qushlar galasi,
Qattiq ingrar edi
yaralangan jon.
Ochilib ketganday ulkan yarasi
Bo'kirib yig'lardi ortimdan o'rmon.*



MEN

*Mamlakat bo'lsam agar,
Qudratimga boq, hayot.
Qo'llarim — sodiq askar,
Oyoqlarim — uchqur ot.*

*Tilimdagi har kalom,
Qonunlar bilan tengdir.
Ko'kragim — cheksiz maydon,
Yer yuzidan ham kengdir.*

*Undagi boyliklar sof,
Ortsa, yetmagay xachir.
Qozi — mendagi insof,
Aqlim esa bosh vazir.*

*Kezurman unda tanho,
G'ururim — baland tog'dir.
Bu yurtida men fuqaro,
Ko'nglim esa podshohdir.*

KABUTAR

*Nega yig'lay... mana, jilmaydim,
Noxos qo'lim qaltirar battar.
Qulog'ingga shivirlab aytdim:
Meni tashlab ketma, kabutar.*

*Ko'chkilardek qo'limdan ko'chding,
Chidolmadim...
menga ham og'ir.
Nega bitta patni unutding,
Bu "unutma" degani axir.*

*Kun yuzini teshib o'tdi o'q,
Ko'zlarimdan yo'qoldi farah.
Kim ekan u... manglayi sovuq,
Qaltiraydi lablarim... ablah.*

*Qor yog'ar...
Vujudimda sarg'ayib qolgan,
Ayriliqning ma'sum xatlari.
Shig'alagan qormas — otilgan
Oppoq kabutarning patlari.*

OJIZ RASSOM

*Og'ushiga olib
...bir qizni ilhaq,
Og'ir chayqaladi yumshoq kreslo.
Men uning suratin chizishim kerak,
U shuni istaydi...
men esa aslo.*

*Mana, ish stolim,
eng noyob ranglar,
Ular xiralashib qolganday go'yo.
"Ana, buyuk rassom, ana, qaranglar",
Ustimdan kulardi ablah kreslo.*

*Menga berilgan vaqt qaridi go'yo,
Hatto zig'ircha ham qolmadi fursat.
Borimni sotaman arzonga dunyo,
O'rniga so'rayman,
...faqat bir surat.*

*Turibman go'zallik oldida ojiz,
Haqoratli so'zlar qanday serjilo.
Menga hayotidan vaqt ajratgan qiz?*

*To'xtang...
bo'shab qoldi, og'ir kreslo.*

*Bu kun yashirmadim mard yoshlarimni,
Suratlar o'tiga isindim hatto.
O'shanda eng yaqin dushman ko'rindi,
Qarshimda jilmayib turgan Kreslo.*



SHOIRNING XONASI

*Deraza oldida — to‘xtagan soat,
Necha kun bo‘ldi-ya yurmaganiga.
Necha tun to‘ldi-ya manavi guldon
Quyoshning nurini ko‘rmaganiga.*

*Devorda bezovta dengiz surati,
Xayolda qutirib, tinchlik bermaydi.
Qalamdon har doim stol ustida
Ammo biror qalam unda turmaydi.*

*Jur‘ati yetmayin taqillatishga,
Kun poylab o‘tirar eshik ortidan.
Meni yo‘taltirib ba‘zi-ba‘zida,
Jimitdek xonaga tushadi tuman.*



1938 - yil...

*Holsiz yotar edim...
g'aflat to'shakda,
Qaysidir dunyoda yashadim biroz.
Quyuuq tuman edi, atrof o'shanda,
Birdan vujudimni teshdi bir ovoz.*

*Jalada qolganday tanim jiqqa ho'l,
Labimda achchiq ter o'rmalar sovuq.
Chaqmoq chaqar edi guldurab nuqul,
Tinmay otildirdi miltiqdagi o'q.*

*Go'yo nishondaman...
taqdirim aniq,
Tushkun jovdirayman oyna tomonga.
Aniq ko'rgan edim, o'shanda borliq,
Belanib yotardi qop-qora qonga.*



XOTIRA KITOBI

*Sovutdek majaqlab ketdilar barin,
Og'ir karvonlarning qadami uzra.
Qumsoq xayollarning oq zarralarin
Javonimga qo'yib ketgan xotira.*

*Oppoq vujudimga chizib o'tmishni,
Esimda devordan oshib o'tganim.
Qulupnay xumori tutib do'stimni,
O'zganing bog'ida ilhaq kutganim.*

*Bariga qo'l siltab qo'ydim shu ondan,
Tarqoq halovatdan topolmadim sir.
Qo'lida qulupnay ba'zan javondan
Ohista shivirlab qo'yadi kimdir...*



TAQA

*Oq terakning qora taqdiri,
Ancha oldin bo'ldi ovoza.
Endi uning nomi terakmas,
Endi uning nomi darvoza.*

*Hali yangi... asramoq kerak,
O'tgan-qaytgan chertkilab turdi.
Kecha tunda kelgan mast kishi,
Oh, sho'rlikni ayamay urdi.*

*Cho'pon tayoq bilan turtadi,
Kimdir tepib o'tadi atay.
Tilib-tilib ko'rar ba'zilar,
—Bu terakmi yoki qarag'ay?*

*U eng go'zal darvoza edi,
Endigina yasalgan damlar.
Taqa uni chindan asradi,
Asrolmadi faqat odamlar.*

* * *

*Yomg'irda qolib ketsang,
Foydang tegib kimgadir.
Ey birodar, ustingga
Yog'gan haqiqiy yomg'ir.*

*Aksi bo'lsa mabodo,
Aqling yetsa bo'lgani.
Yuzingga tekkan tomchi
Osmonning tupurgani.*



* * *

*Meni ma'zur tuting,
Faqat iltimos,
Buncha o'zingizni olmang panaga.
Mening izlaganim bitta rang xolos,
Bitta rang deb keldim g'urbatxonaga.*

*Meni ma'zur tuting,
So'ng bor da'fatan,
Bilmay kirib qoldim hayotingizga.
Meni haydavoring
Mayli, ketaman,
Nimadir aytmoqchi bo'ludim sizga.*

*Bir daqiqa...
Endi jim turasiz mag'lublarga xos,
Maylimi bir og'iz gapirsam, inim.
Bitta rangni kashf qilganim rost,
Faqat...
Mingta rangdan ajralgan kunim.*

NA BIR HOL BOR

*Na bir hol bor, na bir hafsala,
Yoqib borar og'ir qo'shiqlar.
Seni ko'rgan tushlarim chala,
Hamma yoqda qora mushuklar.*

*Men ularga ishonib chindan
Baxtsizlikning izlarin ko'rdim.
Qora mushuk o'tsa yonimdan,
Sen tomonga borolmay yurdim.*

*Bu savdolar o'tar erta-kech,
Tugab borar og'ir qo'shiqlar.
Tushun, ortga qaytolmayman hech,
Ortimda ham qora mushuklar...*



MUNDARIJA

<i>Shoir degan daraxt.....</i>	<i>5</i>
<i>Fotoapparat va men.....</i>	<i>6</i>
<i>Olapar.....</i>	<i>8</i>
<i>Soat millariga.....</i>	<i>10</i>
<i>Jaloliddin Manguberdi monologi.....</i>	<i>11</i>
<i>Yuborilmagan suratlar.....</i>	<i>12</i>
<i>Yosh jangchining surati.....</i>	<i>14</i>
<i>Tugma.....</i>	<i>15</i>
<i>Bedanaga tanbeh.....</i>	<i>17</i>
<i>Qaytish.....</i>	<i>18</i>
<i>Qizil chiroq.....</i>	<i>19</i>
<i>Pushkin xotirasiga.....</i>	<i>20</i>
<i>Singlim.....</i>	<i>21</i>
<i>Mahkumning so'nggi nutqidan.....</i>	<i>22</i>
<i>Yaxshi odam.....</i>	<i>24</i>

<i>Sehrgar daftaridan.....</i>	<i>26</i>
<i>Yozilmagan tarixdan.....</i>	<i>27</i>
<i>Niqobli.....</i>	<i>29</i>
<i>Yo‘qlov.....</i>	<i>30</i>
<i>Bobom va "folbin"</i>	<i>31</i>
<i>Rivoyat.....</i>	<i>32</i>
<i>"Tanga"</i>	<i>33</i>
<i>Be mor do‘stimdan xat.....</i>	<i>34</i>
<i>Qo‘llar.....</i>	<i>36</i>
<i>Kichkina tabib.....</i>	<i>37</i>
<i>Ke malardek uchrashgan edik.....</i>	<i>39</i>
<i>Ulg‘ayish.....</i>	<i>41</i>
<i>Konduktor qizga.....</i>	<i>42</i>
<i>Fil falsafasi.....</i>	<i>43</i>
<i>Evrilish.....</i>	<i>44</i>
<i>Hellados.....</i>	<i>46</i>
<i>Manzara.....</i>	<i>48</i>
<i>Men.....</i>	<i>50</i>
<i>Kabutar.....</i>	<i>51</i>
<i>Ojiz rassom.....</i>	<i>52</i>

<i>Shoirning xonasi.....</i>	<i>54</i>
<i>1938-yil</i>	<i>55</i>
<i>Xotira kitobi.....</i>	<i>56</i>
<i>Taqa.....</i>	<i>57</i>
<i>Yomg'irda.....</i>	<i>58</i>
<i>Meni ma'zur tuting.....</i>	<i>59</i>
<i>Na bir hol bor.....</i>	<i>60</i>

BOBUR ELMUROD

KO‘ZLARIMDAGI DUNYO

She’rlar

Muharrir: Humoyun Akbarov

Rassom: Dilshoda Narziyeva

Badiiy muharrir: Akbarali Mamasoliyev

Musahhih: Oygul Suyundiqova

Sahifalovchi: Oygul Fozilova

Nashriyot litsenziyasi №. 181. 08.12.11.

Terishga 16.02.2012 da berildi. Bosishga ruxsat 20.09.2012 da

berildi. Bichimi 70x90^{1/32}. Ofset usulida bosildi.

«Acade my» garniturasini. Shartli b.t. 2,34. Nashr-hisob t. 2,1.

Adadi 20.000 nusxa. Buyurtma №

«ADIB» nashriyotida tayyorlandi.

100027. Toshkent. O‘zbekiston ko‘chasi, 16-uy.

Tel: (8371) 245-89-24.

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligining

G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi

bosmaxonasida bosildi.

100128. Toshkent. Shayxontohur ko‘chasi, 86.

Muqovani bezatishda respublika rassomlik kolleji

talabalarining ijodiy ishlaridan foydalanildi.